

UDC: 349.6(045)(575.1)

O'SIMLIK DUNYOSIGA OID QONUNCHILIKDA EKOLOGIK VA MULKIY MUNOSABATLAR TAHLILI

Mahkamov Durbek Ne'matovich,
 Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti,
 yuridik fanlar nomzodi
 e-mail: d.maxkamov@tsul.uz
 ORCID: 0000-0002-6918-4616

Annotatsiya. Maqolada ekologik holatni xalqaro va milliy miyosdagi statistik ma'lumotlar hamda huquqiy aspektlar orqali tahlil etish natijasida ekologik-huquqiy ong va qarashlarning o'zgarishi tavsiyflangan. Tabiiy resurslardan biri bo'lgan o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishning ekologik-huquqiy maqomi, huquqiy rejimi, o'simlik dunyosini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi dinamikasi va qamrovi, yillar kesimida rivojlanish bosqichlari to'g'risida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, sohani rivojlantirish va prognoz qilishga qaratilgan zamonaviy konsepsiylar, yangi mexanizmlar, ilmiy-nazariy institutlar to'g'risida fikrlar berilgan. O'simlik dunyosiga nisbatan mulkchilik masalalari, uning qonunchilikdagi maqomi va o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Bunda jismoniy va yuridik shaxslarning o'simlik dunyosiga nisbatan mulk sifatidagi munosabati, foydalanish chegarasi, muhofaza qilish majburiyati masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: o'simlik dunyosi, ekologik qonunchilik, tabiiy resurs, o'simlikdan foydalanish, maxsus foydalanish, mulkiy munosabatlar.

АНАЛИЗ ЭКОЛОГО-ИМУЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ О РАСТИТЕЛЬНОМ МИРЕ

Махкамов Дурбек Нематович,
 кандидат юридических наук, доцент
 Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье описываются изменения экологического сознания и отношения в результате анализа экологической ситуации посредством международных и национальных статистических данных и правовых аспектов. Приводится аналитическая информация об эколого-правовом состоянии охраны и использования растительного мира – одного из важных природных ресурсов; правовом режиме, динамике и масштабах принятия нормативных правовых актов, регулирующих растительный мир, изучены этапы развития законодательства по годам. Кроме того, представлены сведения о современных концепциях, новых механизмах, научно-теоретических институтах прогнозирования развития отрасли. Описаны также вопросы права собственности на растительный мир, особенности его статуса в законодательстве. Акцентируется внимание на отношении физических и юридических лиц к растительному миру как к собственности, пределах использования и обязанностях по охране растительного мира.

Ключевые слова: растительный мир, природоохранное законодательство, природные ресурсы, использование растений, частное пользование, имущественные отношения.

ANALYSIS OF ENVIRONMENTAL AND PROPERTY RELATIONS IN PLANTS LEGISLATION

Makhkamov Durbek Nematovich,
Assistant professor of Tashkent State
University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. The article describes the changes in environmental consciousness and attitudes as a result of the analysis of the environmental situation through international and national statistical and legal aspects. Analytical information on the environmental and legal status of the protection and use of the flora, one of the natural resources, the legal regime, the dynamics and scale of the adoption of regulatory legal acts regulating the flora, the stages of development over years is given. In addition, ideas about modern concepts, new mechanisms, scientific and theoretical institutions for the development and forecasting of the industry are presented. The issues of ownership of the plant world, its status in the legislation, its features are also described. Attention is focused on the attitude of individuals and legal entities to the flora as property, the limits of use, and the obligation to protect.

Keywords: flora, environmental legislation, natural resources, use of plants, private use, property relations

Kirish

Jamiyat rivojlanishi natijasida ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar o'zgarishi tamaddunning dinamik ko'rsatkichlarida namoyon bo'lmoqda. Bu holat barcha jabhalarda o'z ifodasini topmoqda. Jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlari ham keskin o'zgarishlar tendensiyasiga mansubligi bilan alohida ajralib turibdi. Aynan yillar mobaynida shakllangan nazariy qarashlar va shu davrdagi amaliy ifodalar (qonunchilik) o'zining g'oyaviy ko'rinishini yangicha yo'g'rilgan mazmun bilan to'dirgan holda, zamonaviy ko'rinishga o'tmoqda.

Zero, insonlarning ekologik-huquqiy ongi rivojlanishi o'simlik dunyosini muhofa qilish va undan foydalanishga oid munosabatlar ni o'zgartirmoqda. Bu borada huquqshunos olim M. Najimov "Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalari faqatgina moddiy ishlab chiqarish jarayonida inson o'z ehtiyojlari uchun tabiatni qaysi usulda, qanday vositalar yordamida o'zlashtirayotgani bilan belgilanmaydi. Bunda atrof tabiiy muhit muhofazasi-ga munosabat jamiyatning ijtimoiy mas'uliyatni anglash xususiyatlarini ko'rsatib turadi. Ayniqsa, ekologik vaziyat keskinlashayotgan hozirgi davrda iqtisodiy rivojlanish darajasi-

ni ko'rsatadigan mezonlar sof iqtisodiy manfaatlar doirasidan chetga chiqib ketdi. Shu jihatdan olganda, ekologik ehtiyojlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi bilan "tabiat-iqtisod-jamiyat" tizimida ekologik-huquqiy ong va madaniyatning rolini oshirish kun tartibiga qo'yilayotganligi tasodifiy holat emas", deb ta'kidlaydi.

Tabiiy obyektlardan biri bo'lmish o'simlik dunyosi misolida ko'radigan bo'lsak, Birlashgan Qirollikdagi Kyu qirollik botanika bog'i hisobotiga ko'ra, hozirgi vaqtida fanga o'simliklarning 391 000 ga yaqin turi ma'lum bo'lib, ulardan 369 000 ga yaqin turi (yoki 94 %) gulli o'simliklardir. Har yili 2 000 ga yaqin yangi o'simlik turlari topiladi yoki tavsiflenadi. Mavjud eng yaxshi hisob-kitoblarga asoslanib, olimlar barcha o'simlik turlarining 21 foizi yoki har besh o'simlik turidan biri yo'qolib ketish xavfi ostida ekanini ta'kidlashadi [1].

Mazkur ekologik tanglik ham iqtisodiy darajaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil hisoblanishi tabiiy. Pirovard natijada, davlatning iqtisodiy manfaati har jabhada o'z ta'sirini bildiradi. Ushbu tendensiya o'simlik dunyosi qonunchiligi bilan bir qatorda aksariyat tabiiy obyektlar huquqiy maqomiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Metod va materiallar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda ilmiy bilishning mantiqiy va ilmiy uslublaridan foy-dalanilgan, xususan, mantiqiy tahlil, tarixiy, qiyosiy-huquqiy kabi uslublar qo'llanilgan. Bundan tashqari, empirik materiallar, xususan, statistika ma'lumotlari, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Tabiatdagi har qanday o'zgarish, ekologik muhit ilmiy-nazariy hamda qonun ijodkorligi muhitiga ta'sir etadi va uning yaqqol ko'rinishi ekologik siyosat davrlarni turli tasnifga bo'lish imkonini beradi.

Birinchi bosqich sifatida 1924–1990-yillarda amalga oshirilgan yangi qonun normalari vujudga kelganligini ta'kidlash joiz. Dastlabki yer qonunchiligi ishlab chiqilishi, O'zbekistonning maxsus tabiatni muhofaza qilishga oid qonunlarning qabul qilinishi, keyinchalik yer, suv, yer osti boyliklari, o'simlik dunyosi va hayvonot dunyosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarning kodifikatsiya qilinishi ekologik qonunchilikka poydevor bo'ldi [2].

Ikkinci bosqich sifatida 2000–2016-yillarda olib borilgan davlat ekologik siyosatini ko'rsatishimiz mumkin. Birinchi Prezident 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016-yil uchun mo'ljalangan iqtisodiy dasturning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisida "Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borilayotgan islohotlar, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir" deb nomlangan ma'rzasida "Biz uchun asosiy vazifa – ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zaxiralarni izlab topish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom et-

tirishdan iborat bo'lishi zarur. Shu borada ichki imkoniyat va zaxiralarimizni ishga solishning eng muhim yo'nalishi bizning zamnimizdagi boy mineral xomashyo va o'simlik dunyosi resurslarini chuqur qayta ishslashni bosqichma-bosqich oshirib borish, shuningdek, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishning hajmi va turini kengaytirishdan iborat bo'lishi kerak" [3], deb ta'kidlagan.

Bizga ma'lumki, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga imkoniyatlar yaratish va rag'batlantirish maqsadida sohaga oid qator masalalar tanqidiy qayta ko'rib chiqilib, zamon talabiga javob bermaydigan byurokratik to'siqlar bekor qilindi. Amalga oshirilgan choralar natijasida respublikada ishbilarmonlik muhiti tobora yaxshilandi, xususiy investor va tadbirkorlik subyektlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Bu holat ekologik qonun hujjatlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etishda ham namoyon bo'layotgani tadbirkorlik faoliyatiga naqadar e'tibor yuksakligidan dalolat beradi.

Masalan, yangi tahrirdagi "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunga "Sun'iy yaratilgan sharoitlarda yetishtiriladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar yuridik yoki jismoniy shaxsning mulki bo'lishi mumkin" yoki "Yuridik va jismoniy shaxslar o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanuvchilar bo'lishi mumkin" kabi jumlalar kiritilganligi, Vazirlar Mahkamasining "Biologik resurslardan foydalanishni tartibga solish va tabiatdan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risida"gi qarorining birinchi jumlasida qayd etilganidek, "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlarini kuchaytirish maqsadida" qabul qilinganligi, o'simlik dunyosidan foydalanuvchi tabdirkor-

larga ruxsat etishga qaratilgan va shunday xususiyatga ega hujjatning vakolatli organga bevosita, elektron shaklda yoki pochta aloqa vositalari orqali taqdim etilishi kabi qulayliklar yaratilganligi tadbirkorlar manfaati ko'zlanganligini ko'rshimiz mumkin [4].

Bu e'tibor va imtiyozlar yaxshi, albatta, biroq zamonaviy ekologik siyosatni yuritishda kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olish masalasi ham mavjud. Shu sababli ham Konstitutsiyamizda ifodalangan aniq qoida – "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ular dan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir", deb belgilangan. Zotan, "oqilona foydalanish" deganda, avvalambor, zaxiralardan kelajakni o'ylab, tejamkorlik bilan foydalanish tushuniladi. Shu jihatdan qaraganda, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan "O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish va o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risida"gi nizomning ayrim qoidalari o'simlik dunyosini muhofaza qilishga nisbatan undan foydalanishga ustuvorlik ber-ganday ko'rindi.

Mazkur mazmunda tushunish mumkin bo'lgan qator normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 30-sentabrdagi 278-sон qarori bilan tasdiqlangan ilovaga ko'ra, yuridik va jismoniy shaxslarga yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarni g'amlaganlik (yig'ganlik) uchun to'lovlarini kamaytirish bo'yicha belgilangan to'lovlarining 50 foizdan 90 foizgacha miqdorda imtiyozlar berildi.

Natijada o'simlik dunyosi obyektlaridan tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish salmog'i yanada oshdi.

Bundan tashqari, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror rivojlanishning ekologik asoslarni joriy etish hamda atrof-muhitning normal holatini ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish maqsadida O'zbekis-

ton Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-maydag'i "2013-2017-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar dasturi to'g'risida"gi 142-sон qarori bilan tasdiqlangan "2013-2017-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar dasturi"ga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida ko'p qirrali iqtisodiyot va jamiyat qurilishining asosiy tamoyillari barqaror rivojlanish tamoyillari bo'lib, ular doirasida birinchi darajadagi muhim vazifa ijtimoiy va boshqa sohalarda siyosat bilan yaqin integratsiyada izchil amalga oshiriladigan makroiqtisodiy rejalashtirishning tabiat muhofazasi siyosati bilan maqbul uyg'unlidir, deb belgilandi.

Uchinchi bosqich 2016-yildan hozirgi davrga qadar bo'lgan ekologik siyosatdagi "inqilob" jarayonlaridir.

Mazkur yildan e'tiboran davlatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik va santiariya holatini yaxshilashni ta'minlash sohasida tizimli ishlar olib borila boshladi.

Bundan tashqari, mazkur jabhada o'tkazilgan tahlil natijalari atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat funksiyalarini amalga oshirishda strategik rejalashtirish va kompleks yondashuvning mavjud emasligi, shuningdek, qo'yilgan vazifalarni samarali bajarish uchun tabiatni muhofaza qilish organining vakolatlari yetarli emasligidan dalolat beradi. Natijada 2019-yilda "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Prezident Farmoni imzolandi. Aynan ushbu hujjat davlat ekologik siyosatining tub burilishi, yangicha tendensiya paydo bo'lganining huquqiy dalili sifatida namoyon bo'ldi.

Ushbu hujjat oldingi bosqichlarda qabul qilingan hujjatlardan tubdan farq qilgan holda, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samara-

li mexanizmlarini joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, aholi punktlarining ekologik va sanitariya holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish eng asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Ilmiy-huquqiy adabiyotlar va qonunchilikdagi atamalar tahlili asnosida ko'radigan bo'lsak, 2010-yilga qadar ekologiya huquqiga oid adabiyotlarda o'simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish masalasiga yetarlicha e'tibor qaratilmagan, aksar holdarda o'simlik dunyosi tushunchasi umumiy ma'noda talqin qilingan. Jumladan, huquqiy adabiyotlarda faqat o'rmon tushunchasi va o'rmonidan foydalanish huquqi tushunchalariga e'tibor qaratilgan [5]. Qonunchilikda ham o'simlik dunyosi tushunchasi bevosita ochib berilmagan. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish konsepsiysi mavjud bo'lмаган yoki umumiy ekologik qonunchilik tizimi tarkibida o'zgarishsiz amalda bo'lib kelgan.

Ta'kidlash joizki, bugungi globallashuv davriga kelib, tabiiy resurslar, xususan, o'simlik dunyosi obyektlari yuzasidan yangicha qarashlar vujudga kelmoqda va yuqoridagi g'oyalardan keskin farq qiluvchi nazariyalar paydo bo'lmoqda.

Ushbu nazariyalar asta-sekinlik bilan qabul qilinayotgan qonunlarda o'z ifodasini topmoqda. Mazkur holatni ekologiya huquqining obyekti bo'l mish o'simlik dunyosiga oid qonunchilik to'g'risida mulohaza qilish orqali ifodalash mumkin.

O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi qonun yangi tahririning (yangi tahrir qabul qilinganiga 6 yil bo'ldi) eng ustuvor jihat shuki, obyektga nisbatan mulkiy munosabatlarni inobatga olgan va foydalanuvchilarning huquqlari va ularning maqomini alohida aks ettirgan qonun sifatida namoyon bo'ldi. Mazkur holatni

o'simlik dunyosi obyektlari tushunchasidan ham ko'rishimiz mumkin.

1997-yilda qabul qilingan va ancha muddat amalda bo'lgan qonunda o'simlik dunyosiga umuman ta'rif berilmagan va o'simlik dunyosi obyektlari mazmuni "yovvoyi organizmlar daraxtlar, butalar va o'tsimon urug'laydigan o'simliklar, qirqquloqsimonlar, yo'sinsimonlar, suvo'tlar, lishayniklar va zamburug'lar o'zining barcha xilma-xil turlari, yovvoyi organizmlardan tashkil topadigan tabiiy o'simlik jamoalari yoki ularning har qanday majmuyi, kamyob va yo'olib ketish xavfi ostida turgan o'simlik turlari, yovvoyi o'simliklarning mevalari, urug'lari va boshqa qismlari yoki ular hayoti faoliyatining mahsullari", deb qayd etilgan.

Qonunning yangi tahririda o'simlik dunyosiga "O'zbekiston Respublikasi hududida tabiiy muhitda o'sadigan yoki sun'iy yaratilgan sharoitlarda yesishtiriladigan barcha turdag'i yovvoyi o'simliklar majmuyi" deb aniq ta'rif berilgan. E'tiborlisi, mazkur qonunda o'simlik dunyosi obyektlari sifatida yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar, botanika kolleksiyalari, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning yashash faoliyati mahsulotlari sanab o'tilgan.

Ko'rishimiz mumkinki, bu yerda o'simlik dunyosiga berilgan ta'rif va uning obyektlari tarkibida "sun'iy sharoitdagi o'simlik" tushunchasi ham qayd etilgan.

Demak, qonun nafaqat tabiiy sharoitdagi yovvoyi o'simliklar, balki antropagen ta'sir mavjud bo'lishi natijasida paydo bo'lgan o'simliklarni nazarda tutadi. Bu esa ushbu tabiiy obyektga nisbatan mulkiy munosabatlarni tartibga solishda ham ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli ham Qonunda aks etgan o'simlik dunyosiga nisbatan mulkchilik masalasini ekologiya qonunchiligi tizimida bir necha yillar mobaynida mavjud bo'lib kehayotgan tendensiyaga tub burilish yasovchi norma sifatida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, o'simlik dunyosiga nisbatan mulkchilik deganda, tabiiy muhitda yovvoyi holda o'suv-

chi o'simliklar davlat mulki, sun'iy yaratilgan sharoitlarda yetishtiriladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar yuridik yoki jismoniy shaxsnинг mulki bo'lishi mumkinligi aniq belgilandi. Mazkur normaning yangiligi va o'simlik dunyosiga nisbatan mulkchilikka zamonaviy yondashuvning mavjudligini oldingi tahrirdagi qonun normasini sharhlash orqali ifodalashimiz mumkin.

Unga ko'ra, "O'simlik dunyosiga nisbatan mulkdorlik" nomi bilan belgilangan moddada "O'simlik dunyosi davlat mulki – umummilliy boylik bo'lib, undan oqilona foydalanish zarur va u davlat muhofazasidadir", deb, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ning 55-moddasi (Yer, suv, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ular dan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir)ni takrorlagan holda, "O'simlik dunyosi – davlat mulki" sifatida e'tirof etilgan.

Amaldagi qonun ham o'simlik dunyosiga nisbatan jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, xususiy mulkni e'tirof etuvchi muhim huquqiy hujjat ekanligini e'tiborga olishimiz lozim.

Biroq ayrim olimlar o'simlik dunyosini tabiiy obyekt sifatida muhofaza qilish bir lamchi bo'lishi va foydalanish faqatgina ma'muriy organlarning ruxsati bilan cheklangan tarzda amalga oshirilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Huquqshunos olim O.Narzullayev fikriga ko'ra, "Biologik resurs sifatida o'simlik dunyosini muhofaza qilish hamda foydalanish sohasida xususiy mulkchilik o'rnatilganligini anglatadi. Bu borada mulkchilik ommaviy yoki xususiy bo'lishidan qat'i nazar, undan oqilona foydalanish talabi qo'yilmoqda. Bu resurslarni yaxshi saqlash yoki qayta tiklash mezonlariga javob berishi kerak. Bu yerda bir masala muhim – biologik resurslar kimning mulki bo'lishidan qat'i nazar va hatto xususiy mulkdorga tegishli bo'lgan taqdirda ham davlat muhofazasida ekanligi belgilangan" [6].

Darhaqiqat, Qonunning ushbu tarzda bayon etilishi olimlarning nazariy qarashlariga ham ta'sir ko'rsatganligini ko'rishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida mulk – xususiy mulk va ommaviy mulk shakllariga bo'linadi. Fuqarolik kodeksining 174-moddasiga ko'ra, o'ziga qarashli mol-mulkni saqlash, agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mulkdor zimmasida ekanligi belgilangan. Xususiy mulk obyekti muhofazasi ushbu mulk egasi – mulkdorga tegishli. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, xususiy mulk sifatidagi o'simlik dunyosi obyektiga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqi jismoniy yoki yuridik shaxsda bo'ladi. Bu esa "davlat muhofazasi"da bo'lishini inkor etadi. Shu sababli "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning mulkchilik masalalariga oid normalarini umume'tirof etilgan nazariy qoidalarga asoslanib tahlil qilganda, turli qarashlar va xilma-xil fikrlar yuzaga kelishi tabiiy.

Masalan, Y.Jo'rayevning fikricha, "yangi qonunchilikda belgilangan tabiat boyliklarning "umummilliy boylik" maqomi sobiq sovet davlati davridagi xuddi shunday maqomlardan tubdan farq qilib, u o'zida tabiat boyliklariga nisbatan mulkchilikning xilma-xil shakllarini qamrab olgan va mulk huquqining aniq subyektiga ega" [7].

Mazmun jihatdan o'zgargan va shu munosabatni tartibga solishga qaratilgan normaning mavjudligi ayrim normalarga zid kelish holatlarini ham vujudga keltirdi. Xususan, qonunda belgilanishicha, "o'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish umumiyligini maxsus foydalanish tartibida amalga oshiriladi. O'simlik dunyosini obyektlaridan umumiyligini foydalanish jismoniy shaxslar tomonidan bepul, hayotiy zarur ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun cheklangan hajmlarda amalga oshiriladi. O'simlik dunyosidan maxsus foydalanish haq evaziga, ruxsatnomalar asosida amalga oshiriladi.

O'simlik dunyosi obyektlari doimiy yoki vaqtinchalik (uzoq muddatli va qisqa muddatli) foydalanishga berilishi mumkin". Bu normada sun'iy yaratilgan sharoitlarda yetishtiriladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar jismoniy yoki yuridik shaxsning mulki bo'lishi mumkinligiga e'tibor berilmagan. Shu sababli yuqoridagi normada mulkdorning mulkka bo'lgan huquqlarini cheklovchi tushunchalar ni anglash mumkin.

Amaldagi qonunning yana bir ijobiy tomoni o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi nazoratning avvalgi qonundan tubdan farq qiluvchi yondashuv asosida yoritilganlidadir. Zotan, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tiklanishni ekologik barqarorlik bilan mutanosib holda olib borish ma'muriy-huquqiy yo'l bilan amalga oshirilishi va davlatning ekologiya sohasidagi boshqaruva vakolatining kengaytirilishini taqozo etadi [8]. Mazkur fikrga hamohang tarzda professor Sh.Fayziyev har qanday davlatning ekologik siyosati atrof tabiiy muhit sohasidagi davlat boshqaruvi va nazorati bilan chambarchas bog'liqligi hamda ekologik siyosat ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi va nazoratining tizimli ifodasi ekanligini qayd etadi [9]. Bu borada professor J.Xolmo'minov Germaniya qonunchiligi misolida atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan foydalanishga oid davlat nazoratining ahamiyatini amaliy misollar orqali ifodalaydi [10].

Qonunning 24-moddasida o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi nazorat davlat ekologik nazorati, idoraviy ekologik nazorat, ishlab chiqarish ekologik nazorati hamda jamoatchilik ekologik nazorati tarzida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Unga ko'ra, o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat nazorati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hamda mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va

undan foydalanish sohasidagi idoraviy ekologik nazorat davlat o'rmon fondi yerlarida O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tomonidan, davlat boshqaruvi organlariga qarashli tashkilotlarda, shuningdek, xo'jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kiruvchi tashkilotlarda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi ishlab chiqarish ekologik nazorati xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ularga biriktirilgan hududlarda olib boriladi. O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi jamoatchilik ekologik nazorati O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Yuqoridagi moddaning mazmunidan ham ko'rishimiz mumkinki, ekologik nazoratning barcha turlari o'simlik dunyosini muhofaza qilish hamda undan foydalanish jarayoniga tatbiq qilingan va har bir ekologik nazorat turi qaysi organ yoki tashkilot tomonidan oib borilishi belgilangan.

Ta'kidlash joizki, qonunning 25-moddasida o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish jarayonini rag'batlantirish masalasi yoritilganligi ham navbatdagi ijobiy natijalardan biridir. Unga ko'ra, o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish, u o'sadigan muhitning muhofaza qilinishi hamda holati yaxshilanishini ta'minlayotgan jismoniy va yuridik shaxslarga qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozlar berilishi mumkin.

Xulosalar

Taklif sifatida shuni aytish mumkinki, ushbu normaning ta'sirchanligi va amaliy ahamiyatini yanada oshirish maqsadida "qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozlar" jumlasini aniqlashtirish va qanday imtiyozlar berilishini aks ettirish maqsadga muvofiq. Shundagina foydalanuvchida imtiyozga nis-

batan talab oshishi orqali oqilona foydalanishga erishiladi.

Ayni davrning talabi shuni taqozo etadiki, naturalistik konsepsiya elementlarini o'zida aks ettirgan maxsus o'simlik dunyosini muhofaza qilish hamda foydalanish (aslida, "o'simlik dunyosini muhofaza qilish" tushunchasini qo'llash payti keldi) to'g'risidagi Konsepsiyanı ishlab chiqish fursati keldi. Bunda "o'rmon" va "o'simlik dunyosi" obyektlarning huquqiy maqomi, ma'muriy tartib-tao-millar, moratoriyl masalalari, mulkiy masalalar, huquqiy rejim, muhofaza chegarasi va mezoni, mas'ul davlat organi va tartibga solish mexanizmi ifodalanishi maqsadga mu-

vofiq. Mazkur hujjat nafaqat huquqiy, balki ilmiy-nazariy xulosalar hosilasi sifatida namoyon bo'ladi. Zero, ushbu tub burilishga davlat ekologik siyosati to'laqonli imkon va sharoit yaratdi.

Umuman olganda, o'simlik dunyosini huquqiy muhofaza qilish va foydalanishga taalluqli ilmiy-nazariy g'oyalarning yangilanishi ushbu qonunchilik tizimida ijobiy o'zgarishlar ro'y berishiga, mulkchilik masalasiga e'tibor qaratilishiga, eng asosiysi, amaliy jihatdan hayotga tatbiq qilish uchun muhim jihatlar inobatga olinishiga, pirovard natijada, genofondni saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga zamin yaratadi.

REFERENCES

1. How many plant species are there in the world? Scientists now have an answer. Available at: <https://news.mongabay.com/2016/05/many-plants-world-scientists-may-now-answer/#:~:text=Scientists%20now%20have%20an%20answer,-by%20Shreya%20Dasgupta&text=There%20are%20about%20391%2C000%20species,Kew%2C%20in%20the%20United%20Kingdom/>.
2. Shodimerov Yu., Xolmuminov J. Ekologik huquq [Environmental law]. Tashkent, Fan va tehnologiya Publ., 2015, 512 p.
3. *Xalq so'zi - The word of the people*, 2016, January 16, no. 11 (6446), p. 3.
4. Mahkamov D. O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishda qonunchilikning o'rni: kecha va bugun [The role of legislation in the use of flora: yesterday and today]. *Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of legal sciences*, 2020, spec. iss.
5. Namozov F.S. O'zbekistonda o'rmonlardan foydalanish huquqi [Forest use rights in Uzbekistan]. Tashkent, Research And Production Association Vostok, 2000.
6. Narzullayev O. O'zbekistonda biologik resurslarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish [Improving the legal regulation of protection and use of biological resources in Uzbekistan]. Tashkent, TSUL, 2020, 232 p.
7. Zhuraev Iu.A. Pravo i upravlenie v oblasti ispolzovanie i okhrany prirodnoi sredy Respubliki Uzbekistan [Law and management in the area of use and protection of natural resources of the Republic of Uzbekistan]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Moscow, 1996, pp. 28-29.
8. Alixonov B.B. Ekologik barqarorlik [Environmental sustainability]. *Huquq va burch – Law and duty*, Tashkent, 2010, no. 36, pp. 11–14.
9. Faiziev Sh.Kh. Teoreticheskie problemy pravovogo obespecheniya ekologicheskoi politiki Respubliki Uzbekistan [Theoretical problems of legal observance of ecological policy of the Republic of Uzbekistan]. Ed. M.Kh. Rustambaeva, M.B. Usmanova. Tashkent, TSIL, 2004, p. 45.

10. Kholmuminov J. Issues of legal regulation of environmental protection and the utilization of natural resources in Germany. Review of law sciences, 2019, vol. 3, article 5. Available at: https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol3/iss2/5/.

11. Ekonomicheskie aspekty borby s nezakonnymi rubkami i nelegalnym oborotom drevesiny: puti povysheniia effektivnosti mezhdunarodnykh programm borby s nezakonnoi deiatelnosti v lesnom sektore [Economic aspects of combating illegal logging and illegal timber trade: ways to increase the effectiveness of international programs to combat illegal activities in the forest sector]. *Ustoichivoe lesopolzovanie – Sustainable forestry*, Moscow, 2007, no. 1 (13), pp. 29–32.

12. Petrov A.P. Cherez nauku i obrazovanie – k garmonii otnoshenii mezhdu obshchestvom i lesom [Through science and education - to the harmony of relations between society and the forest]. *Ustoichivoe lesopolzovanie – Sustainable Forest Crawling*, Moscow, 2003, no. 2, pp. 38–40.

13. Shvars E. Lesnoi kodeks: nevypolnennye obeshchaniia i upushchennye vozmozhnosti [Forest Code: Unfulfilled Promises and Missed Opportunities]. *Ustoichivoe lesopolzovanie – Sustainable Forest Crawling*, Moscow, 2006, no. 4 (12), pp. 2-7.

14. Pisarenko A.I., Strakhov V.V. Lesnoe khoziaistvo Rossii: ot polzovaniia – k upravleniiu [Forestry in Russia: from crawling to management]. Moscow, 2004, 552 p.

15. Dzhennings S., Nussbaum R., Dzhadd N., Evans T. Lesa vysokoi prirodo okhrannoi sennosti. Prakticheskoe rukovodstvo [High Conservation Forests: A Practical Guide]. Moscow, 2005, 184 p.

UDC: 28-74:341(575.1)

SARAXSIY – ISLOM UYG’ONISH DAVRINING YIRIK HUQUQSHUNOSI

Yunusov Haydarali Muratovich,
yuridik fanlar nomzodi,
O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Davlat va huquq instituti katta ilmiy xodimi,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
YUNESKOning “Xalqaro huquq va inson
huquqlar” kafedrasi dotsenti
e-mail: yunusovkm@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3945-3491

Annotatsiya. Ushbu maqola XI asrda yashab ijod qilgan Muhammad ibn Ahmad Abu Bakr Saraxsiyning hayoti va ilmiy merosiga bag’ishlangan. Unda Saraxsiyning huquqshunos sifatidagi xizmatlari bayon etilgan. Saraxsiy islam huquqining rivojlanishiga ulkan hissa qo’shish bilan birga, islam olamida bиринчи bo’lib xalqaro huquq ta’limotiga asos solgan. Saraxsiy asarlarida norma ijodkorligi, huquqni tushunish metodologiyasi, huquqning ilmiy nazariy va amaliy masalalari batafsil yoritilgan. Shu bilan birgalikda, uning asarlarida huquqning asosiy tushunchalari va tamoyillari, deyarli barcha sohalari va mavzulari, kategoriyalari va institutlari o’z aksini topgan. Markaziy Osiyo, xususan, O’zbekiston “Musulmon dunyosining Gugo Grotsiysi” deb nom olgan zabardast olim Muhammad ibn Ahmad Saraxsiy asarlari tufayli xalqaro huquq tug’ilgan vatandir. Saraxsiy arab olimi Muhammad Shaybonning “Xalqaro huquq kitobi”ga sharhlar yozish asnosida bиринчи bo’lib “siyar” – “xalqaro huquq”ni huquqning alohida va mustaqil sohasi sifatida ta’riflagan. Saraxsiy Islom Uyg’onish davrining eng atoqli namoyandasidir. Saraxsiyning ilmiy merosini o’rganishda u yashab o’tgan davr xususiyatlarini e’tiborga olish maqsadga muvofiq. Bu, o’z navbatida, yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so’zlar: islam huquqi, ta’limot, yuridik tanlov, norma ijodkorligi, hanafiya mazhabi, xalqaro huquq, huquqiy ta’lim, Islom Uyg’onish davri, aqliy mushohada.

САРАХСИ – ВЫДАЮЩИЙСЯ ЮРИСТ ИСЛАМСКОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

Юнусов Хайдарали Муратович,
кандидат юридических наук,
старший научный сотрудник
Института государства и права
Академии наук Республики Узбекистан,
доцент кафедры ЮНЕСКО «Международное
право и права человека»
Университета мировой экономики и дипломатии

Аннотация. Статья посвящена жизни и научному наследию Мухаммада ибн Ахмада Абу Бакра Сарахси, жившего и творившего в XI веке. В ней описаны заслуги Сарахси как юриста. Сарахси внес большой вклад в развитие исламского права и первым в исламском мире утвердил доктрину международного права. Его работы охватывают все аспекты права, такие как нормотворчество,

методология понимания права, научно-теоретические и практические вопросы права. В то же время его работы отражают основные концепции и принципы практически всех направлений и категорий институтов права. Центральная Азия, а именно Узбекистан, является родиной международного права благодаря трудам выдающегося ученого Мухаммада ибн Ахмада Сарахси, так называемого «Гуго Гроция мусульманского мира». Интерпретируя книгу арабского ученого Мухаммада Шейбани «Китаб ас-Сияр аль-Кабир», Сарахси первым сформулировал «сияр» – «международное право» как автономную и легитимную дисциплину в рамках права. Сарахси – самый известный представитель Золотого века исламского Возрождения. В процессе изучения научного наследия Сарахси важно учитывать особенности периода, в котором он жил. Изучение трудов данного выдающегося ученого придаст мощный импульс для возрождения новой эпохи – Третьего Ренессанса в нашей стране.

Ключевые слова: исламское право, доктрина, правовые предпочтения, нормотворчество, ханафитская secta, международное право, юридическое образование, исламское возрождение, рациональность.

SARAKHSI IS A GREAT LAWYER OF THE ISLAMIC RENAISSANCE

Yunusov Khaydarali Muratovich,

Senior researcher of the Institute of State and Law of the
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,

Associate Professor of UNESCO Chair on International law and human rights
of the University of World Economy and Diplomacy, PhD in International Law

Abstract. This article is dedicated to the life and scientific legacy of Muhammad ibn Ahmad Abu Bakr Sarakhsy, who lived and worked in the 11th century. It describes Sarakhsy's services as a lawyer. Sarakhsy made a great contribution to the development of Islamic law and was the first in the Islamic world to establish the doctrine of international law. His works cover all sensitive aspects of the law such as the creation of norms, the methodology of understanding the law, scientific theoretical and practical issues of law. At the same time, his works reflect the basic concepts and principles, of almost all areas and topics, categories and institutions of law. Central Asia, namely Uzbekistan, is, apparently, the homeland of International Law thanks to the works of formidable scholar Muhammad ibn Ahmad Sarakhsy, so-called "Hugo Grotius of the Muslims". By interpreting Arabic scholar Muhammad Shaybani's book "Kitab al-Siyar al-Kabir", Sarakhsy was first to set forth the "Siyar" – "International Law" as an autonomous and legitimate discipline within the framework of the law. Sarakhsy is the most famous representative of the "Golden age" of the Islamic Renaissance. To study the scientific legacy of Sarakhsy, it is important to take into account the features of the period in which he lived. This, in turn, will play a significant role in laying the foundation for the expected Third Renaissance in our country.

Keywords: Islamic law, doctrine, juristic preference, norm creation, Hanafi sect, international law, legal education, Islamic Renaissance, rationality.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyandalarining islam

va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebafo hissasini alohida qayd etib o'tgan edi [1].

Darhaqiqat, islom madaniyati va ilm-fanining rivojlanishida Markaziy Osiyolik, xususan, hozirgi O'zbekiston hududida yashab ijod etgan ulug' allomalarining betakror xizmati bor. 2008-yilda misrlik olim Abdulloh

Abdulhamid Sa'd tomonidan to'plangan manbalar asosida chop etilgan "Markaziy Osiyo olimlari ensiklopediyasi"da Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkazdan yetishib chiqqan 2700 nafar olimning nomi zikr qilinadi [2, 462-b.]. Ularning barchasi jahon ilm-fan taraqqiyotida beqiyos rol o'ynagan. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy kabi mutafakkirlar esa allaqachon geodeziya, hindshunoslik, tibbiyot, algebra kabi fanlarning asoschilari deb e'tirof etilgan.

Milodiy XI asrda yashab ijod qilgan Muhammad ibn Ahmad Abi Sahl Abu Bakr Shamsul-aimma Saraxsiy islom dunyosida keng shuhrat qozongan olimlardan yana biridir. Afsuski, uning va boshqa allomalarining merosi, ayniqsa, xalqaro huquq sohasida umuman o'rganilmagan.

Saraxsiy XI asrdayoq islom huquqi va umuman, huquqiy ta'lilotlar tarixida birinchilardan bo'lib xalqaro huquq – siyarni alohida huquqiy tizim sifatida tavsiflagan, xalqaro huquqni shariat huquqi tizimida alohida huquq tarmog'i va huquqshunoslikda alohida fan sohasi sifatida ilgari surgan. Saraxsiyning fikricha, xalqaro ishlar, o'z tabiatini va qamrovi bilan mahalliy huquqdan farqlanadi, shunday ekan, alohida yondashuv va qayishqoqlikni talab qiladi. Din ishlari musulmonlarga tegishli ahkomlar va ularga so'zsiz itoat etish ruhi bilan ta'minlangan, biroq xalqaro aloqlar, xususan, xalqaro shartnomalarga bunday yondashuvni qo'llab bo'lmaydi. Saraxsiy xalqaro ishlar va shartnomalarga nisbatan kengroq va silliq yondashuv kerak, deb hisoblaydi va unga "*tavassu*" (ingliz tilida "*extention*") deb nom bergen edi.

Shu tariqa hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan Farg'ona vodiysida yashab ijod qilgan Muhammad Abu Bakr Saraxsiy Yevropada "xalqaro huquqning asoschisi" deb e'lon qilingan Gugo Grotsiyidan 600 yil avval xalqaro huquqqa asos solgan edi. Afsuski, bu haqiqatni ko'pchilik bilmaydi. Ayniqsa, vatani O'zbekistonda uning xalqaro-

huquqiy merosi yetarlicha o'rganilmagan. Allomaning olamshumul asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinmagan. Biroq Saraxsiyning islom huquqi rivojida tutgan betakror o'rni xalqaro miqyosda keng ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan hamda bir qator xorijlik olim va ulamolar tomonidan chuqur tadqiq etilgan.

O'zbekistonda huquqshunos olimlar tomonidan bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Islom xalqaro huquq ta'liloti sohasida o'zbekistonlik huquqshunoslardan A.Yunusov [3, 15-b.] va asli afg'onistonlik bo'lgan A.Jo'zjoniy o'z ilmiy ishlarida Imom Saraxsiy haqida qisqa ma'lumot beradi. Xususan, Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy o'zining 2002-yilda Toshkentda nashr etilgan "Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari" nomli kitobida Markaziy Osiyolik huquqshunoslari haqida so'z yuritar ekan, Farg'ona faqihlari qatorida Imom Saraxsiyning ilmiy merosiga to'xtalib o'tadi [4, 225-b.].

Imom Saraxsiyning ilmiy merosi o'zbek islomshunos olimlari tomonidan ham o'rganilmoqda. Ular sirasiga O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi tadqiqotchilari A.To'ychiboyev [5, 18-b.], M.Qosimov [6, 21-b.] va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Material va metodlar

Saraxsiyning hayoti sirli va uning barcha tafsilotlarini bayon qiluvchi ma'lumotlar unchalik ko'p emas. Alloma taxminan milodiy 1010-yilda (hijriy 400) tug'ilib, 1096-yilda (hijriy 490) vafot etgan. Keng tarqalgan islom qomuslarida Saraxsiyning tug'ilgan joyi aniq ko'rsatilmaydi. Jumladan, "Islom ensiklopediyasi"ning 2012-yilda chop etilgan ikkinchi nashrida Saraxsiyning Transoksiana (Movarounnahr)da tug'ilganligi va Farg'onada vafot etganligi qayd etiladi [7]. Tarixchilar Salohiddin Munajjid va Abulvafo Afg'oniy asarlarida Saraxsiy uzoq Movarounnahr (Transoksiana)da Mashhad va Marv oralig'ida tug'ilganligi [8, 3-8-b.], Farg'ona, O'zgand, Marg'ilon tomonlarda istiqomat qilganligi aytildi. Turkiyalik

islomshunoslar Muhammad Hamidullo va Usmon Tashtan o'z manbalariga tayangan holda, Saraxsiyning tug'ilgan sanasi va joyini aniq ko'rsatishga harakat qilishgan. Ularga ko'ra, Saraxsiy hijriy 400-yilda (milodiy 1010) savdogar oilasida tug'ilgan. Ular ham allomaning tug'ilgan joyini Mashhad va Marv o'rtasida hozirgi Turkmanistonning Eronga yaqin chegarasidagi Saraxs shaharchasi deb taxmin qilishadi [9, 239-b.].

Saraxsiy 17 yil Buxoroda ta'lif oladi. Tahsilni tamomlagach, Farg'onaga, uning kichik bir shahri bo'lmish O'zgandga boradi. U paytda Markaziy Osiyoning katta qismi Qoraxoniylar tasarrufida edi. Mahalliy hukmdor ga qarshi fikrlari uchun Saraxsiy Qoraxoni hukmdor Shamsul Malik II Nasrxon tomonidan milodiy 1074-yilda (hijriy 466) zindonga tashlanadi va 15 yildan keyin, ya'ni 1088-yilda (hijriy 480) ozod etiladi. Ozodlikka chiqqach, u Farg'onadagi (ayrim manbalarda Marg'ilon) Amir Hasan saroyida hurmat-ehtirom bilan kutib olinadi va oradan 2 yil o'tib vafot etadi.

Saraxsiyning ilmiy merosi ham hajm, ham mazmun jihatdan g'oyat salmoqlidir. Islomshunos olimlar alloma tomonidan yuzga yaqin fundamental asarlar yaratilgan deb hisoblashadi. Saraxsiy hanafiya huquqining eng dolzarb masalalari xususida fikr yuritgan, eng munozarali jihatlariga qo'l urgan. Shu bois uning asarları butun islom dunyosida keng tarqalgan, nufuzli oliygochlarning kutubxonalaridan joy olgan.

Qizig'i shundaki, Saraxsiyning fundamental asarlarini uning 15 yillik zindondagi tutqunlik davrida (milodiy 1074-yildan (hijriy 466) milodiy 1088-yilgacha (hijriy 480) yozilgan. 30 tomlik "Mabsut", "Sharh al-Kitab al-Ibadat", "Sharh al-Kitab al-Iqrar", ikki tomlik "Usul al-Fiqh" va ikki tomlik "Sharh as-Siyar al-Kabir" asarlar shular jumlasidandir. Keyinchalik dunyo bo'ylab shuhrat qozongan mazkur asarlar muallif tomonidan zindonda hech qanday manbalardan foydalanmay, og'zaki tarzda bayon etilgan va uning shogirdlari tomonidan yozib olingan.

Manbalarda uning yana quyidagi mashhur asarları qayd etiladi: "Taloq kitobiga sharh" ("Sharh al-Kitab al-Talaq"), "Tahoviyning "Muxtasar" kitobiga sharh" ("Sharh al-Mukhtasar al-Tahawi"), "Hassofning "Kitob al-nafaqot" kitobiga sharh" ("Sharh al-Nufaqat of Khassaf"), "Hassofning hiylai shari'a kitobiga sharh" ("Sharh al-Hiyal al-Shar'iyat li-Khassaf"), "Fiqh haqida o'ylarim" ("Al-Amali fi-l-Firh"), "Abu Yusufning "Qozilar odobi" asariga sharh" ("Sharh Adab al-Qadi li-Abu Yusuf"), "Furu' bo'yicha Shayboniyning "Jomi' as-sag'ir" kitobiga sharh" ("Sharh al-Jami' al-Saghir li-sh-Shaybanifi Furu'"), "Hanafiyarning furu' al-fiqhi bo'yicha Shayboniyning Jomi' al-kabir asariga sharh" ("Sharh al-Jami' al-Kabir li-Shaybani fi Furui-l-Fiqhi-l-Hanafi"), "Shayboniyning "Ziyodotlar ziyodoti" kitobiga sharh" ("Sharh al-Ziyadat-ul-Ziyadat li-sh-Shaybani"), "Shayboniyning kasb haqidagi kitobiga sharh" ("Sharh Kitab al-Kasb li-sh-Shaybani"), "Qiyomat alomatlari haqida kitob" ("Sifat Ashrat al-Sa'at"), "Al-favoid al-faqiha" ("Fawa'id al-Faqiha"), "Hayz haqida kitob" ("Kitab al-Hayd"), "Muhit" ("Muhit as-Sarakhs") [10, 201-b.].

Saraxsiy o'zining aksariyat asarlarini Abu Hanifaning shogirdi Muhammad Shayboniy asarlariga sharhlar shaklida yaratgan. O'zidan oldingi yirik olimlarning asarlariga sharhlar yozish Islom Uyg'onish davriga xos xususiyat bo'lgan. Biroq tadqiqotlar Saraxsiy o'z ta'limoto va kashfiyotlarini Muhammad Shayboniydan olgan degan fikrlarni rad etadi. U Abu Yusuf, Shayboniy va hatto hanafiylik maktabi uchun xos bo'lgan istihsonga ashaddiy qarshi bo'lgan imom Shofi'iy asarlaridan ham manba sifatida foydalangan. Saraxsiy Shayboniyga asoslanibgina qolmay, unga qarshi fikrlar ham bildirgan va buning uchun ba'zi o'rinnlarda Abu Yusufdan iqtiboslar keltirgan [11, 27-b.]. Xususan, ba'zan u Shofi'iy fikrlariga havola qilgan holda, Abu Yusuf, Muhammad Shayboniy va boshqalarning fikrlarini inkor ham etadi.

Saraxsiyning huquq rivojiga qo'shgan hissasini baholashda u yashagan davrning

o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy shart-sharoitlar tarixiylik metodi asosida e'tiborga olinishi zarur. Bu davrda huquqiy fanlarning rivojida islom dini va shariatning ta'siri kuchli bo'lgan. Ayni paytda Saraxsiy asarlarining mazmun va mohiyatini to'liq anglamoq uchun ularning qachon va qanday holatda yozilganini ham bilish zarur. Saraxsiy asarlaridan manba sifatida foydalanayotganda, ularga bir butun integratsiyalashgan matn sifatida qarash va matnlararo yondashuv (ingliz tilida "intertextuality") uslubini qo'llash talab etiladi.

Tadqiqot natijalari

"Mabsut", "Usul al-Fiqh" va "Sharh Kitab as-Siyar al-Kabir" Saraxsiyning shoh asarlaridir. Bu uchala asar mantiq va uslub nuqtai nazardan o'zaro bog'langan. Dastlab "Mabsut" yozilgan, chunki "Usul"da unga havolalar mavjud. "Sharh as-Siyar al-Kabir" Saraxsiyning hayotligida yozilgan oxirgi asaridir.

Saraxsiyning 30 tomlik "Mabsut" va ikki tomlik "Usul al-Fiqh" asarlari g'oyat fasohatli tilda bayon qilingan. Biroq "Sharh as-Siyar al-Kabir" asarida g'aliz jumlalar va tugallanmagan fikrlar uchraydi. Ushbu kitob uning zindondagi mahbuslikning oxirgi yillarida ijod qilingan, shogirdlari tomonidan shoshib yozib olingan va taxminlarga qaraganda mukammal tahrir etib ulgurmagan asari sifatida qaraladi.

"Mabsut" (lug'aviy ma'nosi o'zbek tilida "keng", "bat afsil", "mufassal", ingliz tilida "Broad Scope") nafaqat Saraxsiy, balki butun hanafiya maktabining eng mashhur asarlaridan biridir. U Abu Hanifaning eng ishonchli shogirdi va izdoshi Muhammad Shayboniy asarlari asosida yozilgan. Zindonga tashlangan vaqtidanoq (milodiy 1074, hijriy 466), Saraxsiy o'zining asari ustida ishlaydi va uni milodiy 1084-yilda (hijriy 477) yakunlaydi.

Nemis islomshunosi J. Shaxtning fikriga ko'ra, "Mabsut" o'sha paytga qadar qabul qilinib bo'lgan huquq doktrinalarini ta'kidlash va ularning to'g'riliгини qayd etish uchun emas, balki har bir huquq doktrinasining amaliyotga tizimli tatbiq etilishini tahlil

qilishga qaratilgan. Boshqacha qilib aytganda, o'sha paytdagi huquqiy yondashuvlar "falsafiyashib" ketgan, Saraxsiy esa hanafiya maktabidagi har bir huquqiy holatga amaliyot nuqtai nazardan yondashish ta'lilotining asoschisi edi [12, 6-b].

"Usul al-Fiqh" asariga kelsak, Saraxsiy mazkur asarni 1087-yilda (hijriy 479) yozishga kirishgan va taxminlarga ko'ra ikki jildlik asarni o'sha yilning o'zida yakuniga yetkazgan.

Saraxsiyning mazkur asari norma ijodkorligi, ijтиҳод, huquq normalarini sharhlash va talqin qilish metodologiyasi nuqtai nazardan muhim qo'llanma hisoblanadi. U orqali Saraxsiy, birinchidan, o'zidan oldingi hanafiya huquqi normalariga sharh shaklidagi pozitiv huquqni talqin qilgan; ikkinchidan, o'zining huquqiy sharhlarida qo'llaydigan metodini izchil himoya qilishga harakat qilgan.

Aqliy mushohada (asoslantirish) orqali Saraxsiy huquqni sharhlash vositasida hanafiya maktabini yanada rivojlantirdi. Huquqiy sharhlash metodi (usul) va pozitiv huquq (furu') o'rtasidagi aloqadorlikni uyg'un tarzda tushuntirib berdi. Saraxsiyning usuli o'sha paytdagi yana bir atoqli ulamo imom Pazdaviyning usuliga yaqin bo'lgan. Ularning har ikkisi hanafiya huquqining asoschilari – Abu Hanifa, Abu Yusuf va Muhammad Shayboniyga asoslanishgan. Saraxsiyning Pazdaviydan farqi u ko'proq amaliyot va pozitiv huquqqa (furu') murojaat qilgan [13, 88-b.].

Saraxsiyning xalqaro huquq mavzusiga bag'ishlangan salkam ikki ming betlik shoh asari Muhammad Shayboniy kitobiga sharhlar tarzida yozilgan bo'lib, "Sharh as-Siyar al-Kabir" ("Sharh al-Siyar al-Kabir") nomi bilan mashhur bo'lgan xalqaro-huquqiy ensiklopediya hisoblanadi.

Ishonchli manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Saraxsiy o'z asarini O'zgand shahrida (hozirgi Qirg'izistonning Farg'ona vodiysida joylashgan shahar)

zindonda boshlagan va uning to'rtinchi qismi – "al-Shurut" bobini yozayotgan paytda zindondan ozod etiladi. Ozodlikka chiqqach, Saraxsiy umrining oxirigacha Farg'onada (ayrim manbalarda Marg'ilonda) istiqomat qiladi. Xalqaro huquq mavzusiga bag'ishlangan "Sharh as-Siyar al-Kabir", ya'ni "Xalqaro huquq" asarini o'sha yerda 1090-yilda yozib tamomlaydi [14, 159-b.]. Shu tariqa butun islam dunyosida xalqaro huquq masalalariga bag'ishlangan birinchi fundamental asar dunyoga keladi va hozirgi O'zbekiston uning vataniga aylanadi. Demak, Saraxsiy qayerda tug'ilganidan qat'i nazar, uning xalqaro huquqqa oid shoh asari Farg'onada, O'zbekistonda kitobat etilgan va O'zbekiston xalqaro huquq tug'ilgan makondir.

Asarning arab tilida keng tarqalgan nusxasi Salohiddin Munajjid va Abdulaziz Ahmad tomonidan 1971-1972-yillarda chop etilgan Qohira nashridir. Bu nashr beshta jilddan iborat bo'lib, 218 ta bo'lim, 4573 paragraf va jami 2312 betdan iborat. 1-3-jildlar Salohiddin Munajjid, 4-5-jildlar sal keyinroq Abdulaziz Ahmad tomonidan nashr qilingan [15, 28-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Saraxsiy huquqshunos sifatida, shubhasiz, hanafiya maktabining yirik nazariyotchisidir. Saraxsiy fiqh, kalom ilmi va usul (islom huquqi tamoyillari) sohasida o'z davrining tengsiz ulamosi va shu sohadagi munozaralar g'olib sifatida tavsiflanadi.

Saraxsiyning huquqshunos sifatidagi faoliyatini ikki sohada ko'rish mumkin. U ham islam huquqining fundamental nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullandi va ayni paytda islam huquqining kengaytirilgan yangi sohasi – "siyar", ya'ni xalqaro huquq sohasida qalam tebratdi.

Saraxsiyning islam huquqshunosligi sohasidagi alohida xizmatlari shundaki, u hanafiya mazhabida mavjud bo'lgan istihson ("yuridik tanlov", ingliz tilida "juristic preference") doktrinasi rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. U huquqiy muammolarga yechim topishda ra'y (aqliy mushohada, fikr,

tafakkurni)ni qo'lllashning istihson shaklidagi huquqiy asoslantirish metodikasi (uslubi) ni ishlab chiqdi va rivojlantirdi. Istihsonning ta'limot sifatidagi ahamiyati keskin tanqid va qarshiliklarga uchragan paytda Saraxsiy uni muvaffaqiyatli himoya qilgan va shu tufayligina hanafiya maktabining manbalari tizimi rivojiga keng yo'l ochilgan.

Saraxsiyning islam xalqaro huquqiga qo'shgan hissasi ham ulkandir. Bu sohadagi betakror xizmatlari uchun ulug' mutafakkirga "Islam dunyosining Gugo Grotsiysi" (inglizchada "Hugo Grotius of Islam") deb nom berilgan.

Imom Saraxsiy XI asrdayoq islam huquqi va umuman, huquqiy ta'limotlar tarixida birinchilardan bo'lib xalqaro huquq – siyarni alohida huquqiy tizim sifatida tavsifланан, xalqaro huquqni shariat huquqi tizimida alohida huquq tarmog'i va huquqshunoslikda alohida fan sohasi sifatida ilgari surgan. Saraxsiyning bu sohadagi asosiy xizmati shundaki, u diniy ahkomlar (*ahkom ad-din*) musulmonlargagina daxldor bo'lsa, dunyo ishlari (*ahkom ad-dunya*), ya'ni xalqaro aloqalar faqat musulmonlarning emas, balki ularning muloqotdoshlariga, ularning atrofidagi barchaga tegishli, shu sababli bu islam huquqining alohida tarmog'i va huquqshunoslikning mustaqil sohasi bo'lishi kerak, degan g'oyani ilgari surgan va uni asoslab bergan [16, 201-b.].

Saraxsiy huquqiy ta'lim rivojiga ham salmoqli hissa qo'shgan. U nafaqat islam huquqi nazariyasi va amaliyoti sohasida yetakchi olim va benazir asarlar muallifi, balki, shu bilan birga, huquqiy ta'lim sohasida ham ustoz va rahnamo sifatida gavdalananadi. Tan olish kerakki, Saraxsiy yashagan davrlarda ustoz-shogird an'analarini yuksak darajaga ko'tarilgan. Bu an'analar avloddan-avlodga bilim yetkazish vositasi hamda ta'lim va tarbiyaning asosi bo'lib xizmat qilgan.

Saraxsiy o'z davrining olim va ulamolariga ustozlik qilgan. Undan keyin yashagan islam huquqshunoslari ham huquqning deyarli

barcha sohalarida uning ortidan ergashgan. Burhoniddin Marg'inoniy o'zining islom olamidagi eng mashhur asari "Hidoya"ni yozayotgan paytda huquqning murakkab masalalari bo'yicha o'z fikrini asoslashda Saraxsiyning "Mabsut" asariga tayangan. Uning e'tirof etishicha, muxtasarlarda topilmagan javobga "Mabsut"dan yechim topilgan [17, 134-b.].

Huquqiy ta'lif sifati Saraxsiyning doimiy e'tiborida bo'lgan. Davlat va jamiyatdagi huquqiy saviya va savodxonlikning ta'lif bilan kafolatlanishi ilk islom davridayoq e'tirof etilgan. Xususan, Saraxsiy "Mabsut" asarida nega talabalar fiqhni o'qimay qo'yanligi sababini izlaydi va bunga uchta sabab keltiradi: birinchidan, talabalarda ishtiyoq (entuziazm) ning yo'qligi; ikkinchidan, o'qituvchining keraksiz va uzoq dalillarni hikoya qiluvchi eskirgan ta'lif metodi ("al-nikatal-tardiyyah"); uchinchidan, o'shapaytdagiayrimulamolarning huquqiy tushunchalar bilan falsafiy atamalarni qorishtirib, huquqiy ta'lifni qiyinlashtirib yuborgani [18, 2-4-b.]. Ko'rinish turibdiki, Imam Saraxsiyning ushbu fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Va nihoyat, Saraxsiyning huquq rivojiga qo'shgan hissasini baholashda u yashagan davrning o'ziga xos xususiyati, u mansub bo'lgan madaniyat va ma'rifat muhitining inkor etib bo'lmas ta'sirini e'tiborga olish zarur. Saraxsiy yashagan davr insoniyatga betakror aqliy mo'jizalar in'om etgan "al-Nahda Islamiya", ya'ni "Islom Uyg'onish davri" ga to'g'ri keladi [19, 28-b.]. Bu davr butun islom dunyosida ilmiy salohiyat va madaniyat gullab yashnagan davr bo'lib, Abbosiylar hukmonligi yillarini (750-1258) qamrab oladi. Bu davrda Markaziy Osiyoda fan, ilm va madaniyat gullab yashnagan. Ilm-fanning barcha tarmoqlari birdek va o'zaro uyg'unlikda taraqqiy etgan. Abu Bakr Saraxsiy ana shunday "Islom Uyg'onish davri"ning vakili edi. Islom Uyg'onish davri ko'pgina manbalar da islomning "Oltin davri" deb ham ataladi [20, 661-b.].

"Oltin davr"ning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu davrda arab tilida yaratilgan adabiyotlar kelib chiqishi arab bo'limgan mualliflar tomonidan beqiyos boyitildi. Um-maviylar davrida uning poytaxti Damashq-qina ilm-fan va madaniyat markaziga aylangan bo'lsa, Abbosiylar sulolasining poytaxti Bog'dod faqat ma'muriy markaz sifatida tanildi. Fan va madaniyat xalifalikning barcha burchaklarida, ayniqsa, O'rtayer dengizi sohillari va Markaziy Osiyo hududlarida gullab yashnadi. Samarqand va Buxoro kabi islom dini, madaniyati va ilm-ma'rifatining yangi qubbalar bo'y ko'rsatdi. "Ajam" degan umumiy nom bilan yuritilgan forsiy va turkiy tilli Markaziy Osiyo va Kavkaz xalqlari hamda hind qabilalari islom madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Kelib chiqishi arab bo'limgan mutafakkirlar bu davrning ilm darg'alari sifatida e'tirof etildi va arab olamini ortda qoldirdi.

Islom Uyg'onish davrining yana bir ahamiyatlari jihat shuki, bu davrda qadimgi yunon va rim mutafakkirlarining asarlari arab tiliga tarjima qilindi va ularga sharhlar yozildi. Shu tufayli "unutilgan" yunon falsafasi qayta tirildi va arab tilidagi tarjimalari orqali butun dunyo bo'ylab keng tarqaldi. Islom dunyosining muloqot tili sanalgan arab tilida turli xalqlarning madaniyatları, fikrlar xilma-xilligi va dunyoqarashlar turfaligining yaxlitligi mujassam etildi. Islom din va madaniyat, arab tili – fan va adabiyot tili sifatida Arabiston yarim orolini tark etib, endilikda arablар tomonidan zabit etilgan yangi o'lkalarda yuksak taraqqiyotga erishdi.

Xulosalar

Saraxsiy – Islom Uyg'onish davrining yirik huquqshunosi, xalqaro huquqning asoschisidir. Saraxsiy – bizning vatandoshimiz, O'zbekiston esa xalqaro huquq tug'ilgan makon hisoblanadi. Saraxsiy merosi nafaqat o'zbek yoki Markaziy Osiyo yoxud musulmon davlatlari, balki butun dunyo mamlakatlari xalqaro huquq ta'lilotining ibtidosidir. Shunday bo'lishiga qaramasdan, afsuski,

Saraxsiyning xalqaro huquq shakllanishiga qo'shgan hissasi hali-hanuz umume'tirofdan chetda qolib kelmoqda. Buning sabablaridan bittasi, bizning nazarimizda, buyuk allomaning betakror xalqaro huquqiy merosi uning vatandoshlari tomonidan o'rganilmagani va dunyo bo'ylab targ'ib qilinmaganidadir. Zotan, Saraxsiyasarlari G'arbning yetakchi oliy gohlari va ilmiy tadqiqotchilik markazlarida chuqur tadqiq etilgan, uning hayoti va ijodiga oid yuzlab kitoblar chop etilgan.

Xususan, Saraxsiyning "Sharh as-Siyar al-Kabir" asari xalqaro huquqqa bag'ishlangan birinchi doktrinal asar sifatida YuNESKO tomonidan ham e'tirof etilgan. Kitobning ahamiyatini e'tiborga olib, mazkur tashkilot tashabbusi va homiyligida asar 1989–1991-yillarda fransuz tiliga to'liq tarjima qilingan va 4 jilda chop etilgan [21]. Bundan tashqari, Saraxsiyning asari to'liq matnda turk tiliga, tarqoq matnda ingliz, nemis, ispan, urdu, fors va boshqa tillarga ham o'girilgan. Biroq ushbu bebahoh asarning o'zbek tilidagi bayonidan uning yurtdoshlari hamon mosuvo qolmoqda.

Aslida, Saraxsiyning asarlari, ilmiy qarashlari hamda u yaratgan ta'lomitni mukammal o'rganish bizning vazifamizdir.

Uning nomini dunyoga yoyish va ko'p qirrali ilmiy merosini munosib targ'ib qilish vatanimizni targ'ib qilish demakdir. Zotan, ushbu betakror ilm darg'asining ilmiy-ijodiy merosini o'rganish va targ'ib etish orqali "al-Nahda Islamiya", ya'ni "Islom Uyg'onish davri" – Birinchi Renessans va yurtimizda eng yaxshi niyat ila poydevori qurilayotgan Uchinchi Renessans davri o'rtasida "ma'rifat ko'prigi" bunyod etilishi mumkin.

Shundankelib chiqqan holda, O'zbekistonda Imam Saraxsiy va Markaziy Osiyolik Islom Uyg'onish davri mutafakkirlarining xalqaro huquqiy merosini o'rganish, mazkur merosni xalqaro hamjamiyatga taqdim etish, tinchlik va taraqqiyotni ta'minlashda islomning olamshumul rolini tarannum etish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ayniqsa, Saraxsiyning xalqaro huquqqa oid olamshumul asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va ularni chuqur o'rganish o'zbek huquqshunoslarining oldida turgan birinchi galadagi vazifadir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida Imam Saraxsiy nomidagi Xalqaro huquq markazi yoki institutini ta'sis etish ayni muddao bo'lur edi. Xalqaro huquq ta'limoto yanada taraqqiy etgan holda, yangicha qiyofa bilan o'z vataniga qaytmog'i shart.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi [Speech by H.E. Mr. Shavkat Mirziyoyev, the President of the Republic of Uzbekistan at the UNGA-72 of September 19, 2017]. Available at: https://www.un.int/uzbekistan/statements_speeches/address-he-mr-shavkat-mirziyoyev-president-republic-uzbekistan-unga-72/.
2. Encyclopedia of Central Asian scholar. Ed. Z.I. Munavarov. Tashkent, Publishing House of the Republican Scientific-Educational Center of Al-Imam Al-Bukhari, 2008, 468 p.
3. Yunusov A.L. Xalqaro huquqning arab doktrinasi [Arabic doctrine of International Law]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, JIDU, 2008, 28 p.
4. Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoni. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari [Islamic law, hanafiy school and Central Asian lawers]. Ed.-resp. A.H. Saidov, A. Mansur. Tashkent, Tashkent Islamic University, 2002, 262 p.

5. To'ychiboyev A. Abu Bakr Saraxsiy va xalqaro shartnomalar huquqi [Abu Bakr Saraxsiy and International treaty law]. Imom al-Buxoriy saboqlari – Imom al-Buxoriy's lessons, 2012, no. 2, pp. 100-103.
6. Qosimov M. Saraxsiyning iqtisodiy va mulkiy munosabatlar haqidagi qarashlari [Sarakhsī's view on economic and property relations]. Islom tafakkuri – Islamic thoughts. Tashkent, International Islamic Academy of Uzbekistan, 2019, no. 3, pp. 21-23.
7. Calder N. Al-Sarakhsī. Encyclopaedia of Islam. Second ed. Ed. P. Bearman, T. Bianquis, C.E. Bosworth, E. van Donzel, W.P. Heinrichs. First published 2012, 1780 p.
8. Abū al-Wafā' al-Afghānī. "al-Muqaddimah", in Sarakhsī's Uṣūl [Preamble in Sarakhsī's Usul]. Hyderabad, 1372 AH, pp. 3-8.
9. Encyclopedia of Islam, s.v. "Sarakhsī" (Heffening), first edition. Ed. M.T. Houtsma, 1913-1938, Leyden, E.J. Brill. London, Luzac, vol. 4 .
10. Abdullah Abdulhamid Saad. Encyclopedia of Central Asian scholar. Tashkent, Publishing House of the Republican Scientific-Educational Center of Al-Imam Al-Bukhari, 2008, 468 p. (in English and Arabic).
11. Al-Nukat. Hyderabad, Dar al-Mabsut, 1378 AH/1958 AD, 444 p.
12. Schacht J. Notes on Sarakhsī's Life and Works in 900. Ankara, Ankara University, 1965, pp. 1-6, 780 p.
13. Taştan O. Al-Sarakhsī. Islamic Legal Thought: A Compendium of Muslim Jurists. Ed. O. Arabi, D.S. Powers, S.A. Spectorsky. Netherlands, Leiden, Brill, 2014, chapter 11, pp. 239-261, 606 p.
14. Encyclopaedia of Islam. Leiden, E.J.Brill, 1934, p. 159.
15. Sarakhsī. Sharḥ kitāb al-Siyar al-kabīr li-Muhammad ibn al-Ḥasan al-Shaybānī [Interpretation of International Law book of Muhammad ibn al-Ḥasan al-Shaybānī]. Edited by Munajjid, Ṣalāḥ al-Dīn. 1957-60, al-Qāhirah: Ma'had al-Makhtūṭāt bi-Jāmi'at al-Duwal al-'Arabiyyah, vol. 3, pp. 28-1113.
16. Sarakhsī. Sharḥ al-Siyar al-Kabir [Interpretation of International Law]. Ed. Dar al-Ma`arif, 1908, vol. V, 2210 p.
17. Al-Hidayah: The Guidance. Burhan al-Din al-Farghani al-Marginani. A Translation of Al-Hidayah Bidayat al-Mubtadi'. A Classical Manual of Hanafi Law, Volume One. Translated from the Arabic with Introduction, Commentary and Notes by Imran Ahsan Khan Nyazee. Amal Press, Bristol, England, 2006, p. 660. Introduction XXV.
18. Sarakhsī. Mabsūt. Cairo, 1324 AH, 688 p.
19. Rahman I. Shari'ah the Islamic Law. TaHa Publishers, London, UK, 1984, 345 p.
20. The Cambridge history of Islam. The Cambridge History of Islam as its "Golden Age". By Holt P.M., Lambton Ann K. S., Lewis, Bernard. Cambridge University Press, UK, vol. 4, pp. 661-993.
21. Le grand livre de la conduite de l'État (Kitāb al-Siyar al-kabīr ach-Chaibani). Commenté par as-Sarakhsī [International Law (Kitāb al-Siyar al-kabīr ach-Chaibani). Commented by as-Sarakhsī]. Translation by Muhammad Hamidullah. Ankara, Turkiye Diyanet Vakfi, 1989-1991.



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY II MIY-AMALIY JURNALI

1 / 2022

BOSH MUHARRIR: Nodirbek Salayev

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshgarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudovnazarow

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, V. Yarmolik

Texnik muharrirlar: J. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn_tdvu@mail.ru

Jurnal 15.03.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 22,08 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma: № 6.
TDYU tipografiyasida chop etildi.